**Abstract.** This article provides a theoretical and practical analysis of mechanisms for ensuring the inevitability of punishment for the crime of human trafficking. Human trafficking is one of the most serious transnational crimes against human rights and freedoms, and ensuring the inevitability of punishment is of particular importance in the fight against it. The primary objective of the article is to identify effective legal and institutional mechanisms guaranteeing the inevitability of liability for this crime and to develop scientifically grounded proposals for their improvement. In the course of the study, criminal law norms, investigative and judicial practice, as well as the system of preventive measures, were comprehensively studied. In particular, the level of detection and solving of crimes, mechanisms for collecting and evaluating evidence, the victim protection system, and the level of cooperation between competent authorities were analyzed as important factors in ensuring the inevitability of punishment. At the same time, problems encountered in law enforcement practice are scientifically substantiated, including the concealment of crimes, difficulties in proving, jurisdiction issues arising from transnational characteristics, and in some cases, cases of evading responsibility. The article provides a comparative analysis of advanced mechanisms for ensuring the inevitability of punishment based on foreign experience and international legal standards. At the end of the study, specific proposals and recommendations were put forward aimed at increasing the effectiveness of the fight against human trafficking, timely detection of crimes and ensuring fair punishment. These results are of great scientific and practical importance in improving criminal legislation and developing law enforcement practice.

**Keywords:** human trafficking crime, criminal liability, socially dangerous act, norm of international law, transnational crime, organized crime, human rights

### Kirish

Globallashuv jarayonlari jadallashib borayotgan zamonaviy davrda inson huquq va erkinliklariga tahdid soluvchi jinoyatlar orasida odam savdosi alohida xavfli ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu jinoyat o'zining transmilliy xususiyati, yuqori darajadagi latentligi, tashkiliy shakllarda sodir etilishi hamda jabrlanuvchilarning eng zaif qatlamlariga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Shu bois odam savdosiga qarshi samarali kurashish, ayniqsa, ushbu jinoyat uchun jazo muqarrarligini ta'minlash masalasi jinoyat-

huquqiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Javobgarlikning muqarrarligi prinsipi jinoyat huquqining fundamental tamoyillaridan biri bo'lib, u sodir etilgan har qanday jinoyat uchun muqarrar ravishda javobgarlik kelib chiqishini anglatadi. Ushbu prinsipning to'laonli amalga oshirilishi jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, jinoyatchilikning oldini olish hamda fuqarolarning huquqiy ongini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mashhur huquqshunos olim Cesare Beccaria (1995) o'zining "Jinoyatlar va ja-

zolar haqida” nomli kitobida jazolarning qattiqligi emas, balki ularning muqarrarliligi jinoyatchilikka qarshi kurashishda samaraliroq vosita ekanini asoslab bergan. Bu g’oya bugungi kunda ham o’z dolzarbligini yo’qotmagan. Huquqshunos olim M. Rustambayev (2018) ham jazo muqarrarliligi subyektni jinoyatni sodir etishdan to’xtatadigan asosiy vosita hisoblanadi, deydi.

O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 10-moddasi “Qilmishda jinoyat tarkibining mavjudligi aniqlangan har bir shaxs javobgarlikka tortilishi shart” deb belgilaydi (Republic of Uzbekistan, 1994). Ya’ni Jinoyat kodeksi jinoyat sodir etganlik uchun jazo muqarrarliligi hamda jinoyat sodir etgan shaxs javobgarlikdan qutulib qolmasligi haqidagi umumiy talablarni mustahkamlagan. Javobgarlikning muqarrarliligi prinsipi birinchi navbatda jinoyat sodir qilgan shaxslarga qaratilgan va mazkur shaxslar tomonidan sodir qilingan harakatlar uchun javobgarlik to’g’risidagi ko’p qirrali qoidalarini o’rnatadi (Zufarov, 2015).

Odam savdosi jinoyati uchun jazo muqarrarliligi ta’minlash masalasi ko’plab omillar bilan chambarchas bog’liq. Xususan, jinoyatlarni o’z vaqtida aniqlash, ularni to’liq fosh etish, dalillarni ishonchli yig’ish va baholash, sud jarayonining adolatli va shaffof o’tkazilishi, shuningdek, hukm ijrosining samarali tashkil etilishi ushbu jarayonning ajralmas tarkibiy qismlaridir. Amaliyot shuni ko’rsatadiki, aynan ushbu bosqichlarning birida yuzaga keladigan kamchiliklar jazo muqarrarliligi ta’minlashga jiddiy to’squinlik qiladi.

Masalan, xalqaro tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, odam savdosi bilan bog’liq jinoyatlarning katta qismi yashirin (latent) bo’lib qolmoqda. Bu esa jabrlanuvchilarning qo’rquvi, ijtimoiy himoyaning yetarli emasligi, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ishonchning pastligi bilan izohlanadi. Shu nuqtayi nazardan, amerikalik olim Kevin Bales (2018) zamonaviy qullik shakllarini o’rganar ekan, odam savdosiga qarshi kurashishda eng muhim muammo sifatida aynan jinoyatlarning yashirinligini va ularni aniqlash mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganini ko’rsatadi.

Bundan tashqari, odam savdosining transmilliy xususiyati ham jazo muqarrarliligi ta’minlashda murakkabliklar keltirib chiqaradi. Jinoyatchilar ko’pincha turli davlatlar hududida faoliyat yuritadi, bu esa yurisdiksiya masalalari, xalqaro hamkorlikning yetarli darajada yo’lga

qo’yilmaganligi kabi muammolarni yuzaga keltiradi. Shu jihatdan xalqaro huquqiy asoslarning, xususan, Palermo Protokolining (United Nations General Assembly, 2000) ahamiyati katta bo’lib, unda davlatlar o’rtasida hamkorlikni kuchaytirish orqali odam savdosiga qarshi kurashishning samarali mexanizmlari belgilangan.

Milliy darajada esa odam savdosiga qarshi kurashish tizimi doimiy ravishda takomillashtirib borilmoqda. Biroq amaliyotda ayrim muammolar, xususan, jinoyat tarkibini kvalifikatsiya qilishdagi qiyinchiliklar, dalillar bazasining yetarli emasligi, jabrlanuvchilarni himoya qilish mexanizmlarining to’liq ishlamasligi kabi holatlar jazo muqarrarliligi ta’minlashga salbiy ta’sir ko’rsatmoqda. Shu bilan birga, ayrim hollarda jinoyatchilarning javobgarlikdan qochib ketishi yoki jazoning yetarli darajada individuallashtirilmagani ham muammo sifatida namoyon bo’ladi.

Ilmiy adabiyotlarda ushbu masalaga turlicha yondashuvlar mavjud. Yurtimizdagi ayrim huquqshunos olimlar jazo muqarrarliligi ta’minlashda jazolarning qat’iyligini oshirishni taklif etgan bo’lsa, boshqalari profilaktika choralarini kuchaytirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini takomillashtirish hamda jabrlanuvchilarni kompleks himoya qilish tizimini yaratish zarurligini ta’kidlaydi. Shu ma’noda, kompleks yondashuv asosida ishlab chiqilgan mexanizmlar eng samarali hisoblanadi.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, unda odam savdosi uchun javobgarlikning muqarrarliligi ta’minlashning nazariy asoslari, amaliy muammolari va ularni hal etish yo’llari tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – ushbu sohadagi mavjud muammolarni aniqlash, ularning sabablarini ochib berish hamda xalqaro va milliy tajriba asosida samarali mexanizmlarni ishlab chiqishdan iborat.

Shuningdek, tadqiqot o’z oldiga odam savdosi jinoyatining xususiyatlarini tahlil qilish, jazo muqarrarliligi prinsipining nazariy asoslarini yoritish, amaliyotdagi muammolarni aniqlash, xorijiy tajribani o’rganish va ularni milliy qonunchilikka moslashtirish bo’yicha takliflar ishlab chiqishni ham maqsad qilib qo’yan. Tadqiqot natijalari odam savdosiga qarshi kurashish samaradorligini oshirish, jinoyatlarni aniqlash va jazolash tizimini takomillashtirish hamda qonun ustuvorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

### Asosiy qism

Odam savdosi inson huquq va erkinliklariga bevosita tahdid soluvchi, yuqori darajada yashirin va transmilliy xususiyatga ega jinoyat sifatida jinoyat huquqi tizimida alohida murakkablik kasb etadi. Ushbu jinoyatga qarshi kurashishda eng muhim prinsip – javobgarlikning muqarrarligi tamoyili hisoblanadi (Maltsiev, 2004). Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, mazkur tamoyil ko'plab tizimli, institutsional va protsessual muammolar sabab to'liq ishlamayapti.

Birinci va eng asosiy muammo – latent (yashirin) jinoyatchilik darajasining yuqoriligidir. Odam savdosi jinoyati o'z tabiatiga ko'ra yashirin bo'lib, jabrlanuvchilar ko'pincha zo'ravonlik, tahdid, psixologik bosim yoki huquqiy savodsizlik sababli murojaat qilmaydi. UNODC (United Nations Office on Drugs and Crime, 2023) hisobotlariga ko'ra, aniqlangan qurbonlar real ko'rsatkichlarning faqat kichik qismini tashkil etadi. Bu esa klassik kriminologik muammo – “aniqlanmagan jinoyat – jazolanmagan jinoyat” zanjirini yuzaga keltiradi. Demak, jinoyatni aniqlash bosqichidagi uzilish javobgarlik muqarrarligini tizimli ravishda izdan chiqaradi.

Ilmiy adabiyotlarda latent jinoyatchilik tushunchasi jinoyatlarning real sodir etilgan holatlari bilan rasmiy statistikada qayd etilgan holatlar o'rtasidagi tafovut sifatida izohlanadi. Mashhur kriminolog olimlar o'z tadqiqotlarida aynan aniqlanmagan jinoyatlar jamiyat uchun eng katta xavf tug'dirishini ta'kidlagan (Belth, 2018). Ularning fikricha, jinoyatchilikka qarshi kurashishda eng katta muammo jinoyatning aniqlanmasdan qolishidadir. Bu yondashuv, ayniqsa, odam savdosi jinoyatiga nisbatan dolzarbdir, chunki bu turdagi jinoyatlar ko'pincha rasmiy hisobga olinmaydi.

Statistik ma'lumotlar ham ushbu fikrni tasdiqlaydi. UNODC tomonidan e'lon qilingan global hisobotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha aniqlangan odam savdosi qurbonlari real qurbonlarning faqat kichik qismini tashkil etadi. Ayrim tadqiqotlarda bu ko'rsatkich 1/5 yoki hatto 1/10 nisbatda baholanadi, ya'ni aniqlangan har bir qurbon ortida kamida bir necha aniqlanmagan holatlar mavjud bo'ladi (United Nations Office on Drugs and Crime, 2023). Bu esa jinoyatchilikning haqiqiy ko'lami rasmiy statistikadan bir necha baravar yuqori ekanini anglatadi.

Yana bir muhim statistik manba – Xalqaro Mehnat Tashkiloti ma'lumotlaridir. Ushbu tashkilot hisob-kitoblariga ko'ra (International Labour Organization et al., 2022), majburiy mehnat va ekspluatatsiya qurbonlari soni millionlab kishilarni tashkil etadi. Biroq ularning juda oz qismi huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan aniqlanadi va rasmiy ravishda tan olinadi. Bu esa odam savdosi jinoyatining yashirin xarakterini yana bir bor tasdiqlaydi.

Latentlikning yuqori darajasiga olib keluvchi omillarni tahlil qilish ham muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, jabrlanuvchilarning o'zlari murojaat qilmasligi asosiy sabab hisoblanadi. Bu holat ko'pincha qo'rquv omili bilan izohlanadi. Jabrlanuvchilar jinoyatchilar tomonidan tahdid ostida bo'lishi, o'z hayoti yoki yaqinlari xavfsizligidan xavotir olishi mumkin. Bundan tashqari, ular ko'pincha noqonuniy migratsiya holatida bo'lgani sababli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilishdan qo'rqadi (Verteleetskaya, 2012). Shuningdek, jabrlanuvchilarning huquqiy savodxonligi pastligi ham muhim omillardan biridir. Ko'plab hollarda ular o'zlariga nisbatan sodir etilgan harakatlar jinoyat ekanini to'liq anglamaydi. Bu, ayniqsa, iqtisodiy ekspluatatsiya holatlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Natijada ular o'z huquqlarini himoya qilish choralari ko'rmaydi. Ijtimoiy stigma (tamg'alash) omili ham jinoyat latentligida muhim rol o'ynaydi. Ayrim jamiyatlarda, xususan, jinsiy ekspluatatsiya qurbonlari jamiyat tomonidan salbiy baholanadi. Bu esa jabrlanuvchilarning o'z holatini yashirishiga va rasmiy organlarga murojaat qilmasligiga olib keladi.

Huquqshunos olim N. Salayev (2016) jinoyatlarning oldini olish nazariyasida shuni ta'kidlaydiki, jinoyatchilar uchun eng qulay sharoit – aniqlanish ehtimoli past bo'lgan vaziyatdir. Odam savdosi aynan shunday sharoitda rivojlanadi. Agar jinoyatchi o'z harakati aniqlanmasligiga ishonsa, u jinoyat sodir etishda davom etadi. Bu esa javobgarlikning muqarrarligi tamoyili amalda ishlamasligiga olib keladi. Agar jinoyat aniqlanmasa, hatto eng og'ir jazo ham profilaktik ta'sir ko'rsatmaydi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, odam savdosi jinoyatining latentligi javobgarlikning muqarrarligi prinsipini tubdan zaiflashtiradi.

Latent jinoyatchilikning yana bir salbiy oqibati – noto'g'ri kriminal siyosat yuritilishidir

(Ismoilov, 2021). Agar davlat organlari real vaziyat haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lmasa, ular samarali strategiyalar ishlab chiqa olmaydi. Bu esa resurslarning noto'g'ri taqsimlanishiga va jinoyatchilikka qarshi kurashishning samarasiz bo'lishiga olib keladi.

Bir so'z bilan aytganda, odam savdosi jinoyatida latentlik darajasining yuqoriligi javobgarlik muqarrarligini ta'minlashdagi eng asosiy tizimli to'siqlardan biridir. Ushbu muammoni hal etish uchun, avvalo, jinoyatlarni aniqlash mexanizmlarini kuchaytirish, jabrlanuvchilarni himoya qilish tizimini takomillashtirish va aholining huquqiy ongini oshirish zarur. Aks holda, "aniqlanmagan jinoyat – jazolanmagan jinoyat" zanjiri saqlanib qolaveradi va javobgarlikning muqarrarligi prinsipi faqat nazariy tushuncha sifatida qolib ketadi.

Javobgarlikning muqarrarligiga salbiy ta'sir etuvchi yana bir fundamental muammo – jinoyatlarni noto'g'ri kvalifikatsiya qilishdir. Amaliyotda odam savdosi holatlari ko'pincha boshqa jinoyatlar, xususan, noqonuniy migratsiya, majburiy mehnat yoki firibgarlik sifatida baholanadi. Bu esa jinoyat tarkibining asosiy elementi – ekspluatatsiya maqsadini e'tibordan chetda qoldiradi. Natijada jinoyatning haqiqiy ijtimoiy xavflilik darajasi pasaytiriladi va yengilroq jazolar qo'llanadi. Bu muammo jinoyat protsessual huquqi doirasida dalillarni yig'ish, tahlil qilish va baholashdagi kamchiliklar bilan bevosita bog'liq. Xususan, tergov organlarining maxsus bilim va ko'nikmalari yetishmasligi ushbu xatolarga sabab bo'lmoqda.

Jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilish jinoyat huquqining markaziy institutlaridan biri hisoblanadi. Kvalifikatsiya jarayonida jinoyatning barcha tarkibiy elementlari – obyekt, obyektiv tomon, subyekt va subyektiv tomon to'liq aniqlanishi zarur. Odam savdosi jinoyatida esa asosiy farqlovchi belgi aynan ekspluatatsiya maqsadi hisoblanadi (Abdulkhakov, 2019). Ushbu element mavjud bo'lmagan taqdirda jinoyatning mohiyati to'liq ochilmaydi. Xalqaro standartlarda, xususan, Palermo protokolida odam savdosining aniq huquqiy ta'rifi berilgan bo'lib, unda "harakat – vosita – maqsad (ekspluatatsiya)" uchligi asosiy yo'nalish sifatida belgilanadi (United Nations General Assembly, 2000). Amaliyotda aynan "maqsad" elementining isbotlanmasligi yoki e'tibordan chetda qolishi noto'g'ri kvalifikatsiyaga olib kelmoqda.

Statistik va tahliliy ma'lumotlar ham ushbu muammoning keng tarqalganini ko'rsatadi. UNODC tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda (United Nations Office on Drugs and Crime, 2024) qayd etilishicha, ko'plab davlatlarda odam savdosi bilan bog'liq jinoyatlar boshqa moddalarga qayta kvalifikatsiya qilinadi. Masalan, ayrim hollarda odam savdosi bilan bog'liq holatlar noqonuniy chegarani kesib o'tish yoki noqonuniy mehnat faoliyati sifatida baholanadi. Bu esa jinoyatchilar uchun ancha yengil jazo choralari qo'llanishiga olib keladi. Natijada jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi huquqiy bahoda to'liq aks etmaydi.

Ilmiy adabiyotlarda bu muammo "kvalifikatsion deformatsiyalar" sifatida izohlanadi. Kriminolog olimlarning ta'kidlashicha, noto'g'ri kvalifikatsiya nafaqat individual ishlar kesimida, balki butun kriminal siyosatga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, Cesare Beccaria (1995) nazariyasiga ko'ra, jazoning samaradorligi uning muqarrarligi va adolatlilikiga bog'liq. Agar jinoyat noto'g'ri baholansa, demak, jazo ham adolatli bo'lmaydi. Bu esa jinoyatchilar uchun profilaktik ta'sirni sezilarli darajada kamaytiradi.

Noto'g'ri kvalifikatsiyaning asosiy sabablari bir nechta omillar bilan bog'liq. Birinchidan, dalillarni yig'ish va baholashdagi qiyinchiliklar muhim rol o'ynaydi. Odam savdosi jinoyatlari ko'pincha murakkab, ko'p epizodli va yashirin xarakterga ega bo'lgani sababli ularni isbotlash oddiy jinoyatlarga qaraganda ancha qiyin. Ayniqsa, ekspluatatsiya maqsadini isbotlash uchun yetarli dalillarni to'plash katta tajriba va maxsus yondashuvni talab qiladi. Ko'pincha tergov organlari ushbu murakkablikdan qochib, jinoyatni "oddiyroq" modda bilan kvalifikatsiya qilishni afzal ko'radi.

Ikkinchidan, tergov va surishtiruv organlari xodimlarining maxsus bilim va ko'nikmalari yetishmasligi ham muhim sababdir. Odam savdosi jinoyati o'ziga xos kriminologik va psixologik xususiyatlarga ega bo'lib, uni aniqlash va isbotlash uchun maxsus tayyorgarlik zarur. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tavsiyalarida ham huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarini muntazam o'qitish zarurligi alohida ta'kidlangan. Biroq amaliyotda bunday tayyorgarlik yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan.

Uchinchidan, jabrlanuvchilarning ko'rsatmalariga bog'liqlik ham muammoni murakkablash-

tiradi. Ko'plab hollarda ekspluatatsiya faktini isbotlash jabrlanuvchining ko'rsatmalariga asoslanadi. Biroq jabrlanuvchilar turli sabablarga ko'ra to'liq va aniq ko'rsatma bermasligi mumkin. Bu esa jinoyat tarkibini to'liq isbotlashni qiyinlashtiradi va natijada tergov organlari jinoyatni boshqa modda bilan kvalifikatsiya qilishga majbur bo'ladi.

Shuningdek, sud amaliyotining barqaror emasligi ham noto'g'ri kvalifikatsiyaga olib keluvchi omillardan biri bo'lishi mumkin. Ayrim hollarda sudlar tomonidan ekspluatatsiya maqsadi tor doirada talqin qilinadi, bu esa jinoyat tarkibining noto'g'ri aniqlanishiga sabab bo'ladi. Natijada bir xil turdagi holatlar turlicha huquqiy baholanadi.

Huquqshunos olim Rustambayev (2018) nazariyasiga ko'ra, jinoyatchilar o'z harakatlarini baholashda xavf va foyda nisbatini hisobga oladi. Agar jinoyat noto'g'ri kvalifikatsiya qilinishi va yengil jazo qo'llanishi ehtimoli yuqori bo'lsa, bu jinoyat sodir etishga rag'batni oshiradi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, noto'g'ri kvalifikatsiya jinoyatchilikni bilvosita rag'batlantiruvchi omilga aylanadi.

Mazkur muammoning yana bir salbiy oqibati – statistik ma'lumotlarning buzilishidir. Agar odam savdosi jinoyatlari boshqa moddalarga "yashirilsa", davlat organlari real vaziyat haqida noto'g'ri tasavvurga ega bo'ladi. Bu esa strategik rejalashtirish va resurslarni taqsimlashda xatoliklarga olib keladi.

Jinoyatlarni noto'g'ri kvalifikatsiya qilish javobgarlikning muqarrarligini ta'minlashdagi eng muhim to'siqlardan biri hisoblanadi. Ushbu muammoni hal etish uchun, avvalo, tergov va sud organlari uchun yagona metodik qo'llanmalar ishlab chiqish, xodimlarning malakasini oshirish, ekspluatatsiya elementini isbotlash mexanizmlarini takomillashtirish hamda xalqaro standartlarni milliy amaliyotga to'liq joriy etish zarur. Aks holda, jinoyatning haqiqiy mohiyati yashirin qoladi va javobgarlikning muqarrarligi prinsipi amalda ta'minlanmaydi.

Jabrlanuvchiga yo'naltirilgan yondashuvning sust rivojlanganligi ham odam savdosi jinoyatida javobgarlikning muqarrarligini ta'minlashda qiyinchilik tug'diradi. Xalqaro standartlarga ko'ra, xususan, Palermo protokolida (United Nations General Assembly, 2000) jabrlanuvchilarni aniqlash, himoya qilish va rehabilitatsiya qilish

javobgarlik muqarrarligining ajralmas qismi sifatida qaraladi. Chunki aynan jabrlanuvchining ko'rsatmalari ko'plab holatlarda asosiy dalil manbayi hisoblanadi. Biroq amaliyotda jabrlanuvchilar ko'pincha yetarli darajada himoya qilinmaydi, ularga huquqiy va psixologik yordam ko'rsatish tizimi sust ishlaydi. Natijada ular tergov bilan hamkorlik qilishdan bosh tortadi yoki ko'rsatmalarini o'zgartiradi. Bu esa jinoyatning isbotlanishini qiyinlashtiradi va aybdorlarning javobgarlikdan qochishiga olib keladi.

Statistik va tahliliy ma'lumotlar ham ushbu fikrni tasdiqlaydi. UNODC hisobotlariga ko'ra, odam savdosi jinoyatlari bo'yicha muvaffaqiyatli yakunlangan ishlarning katta qismida jabrlanuvchilarning faol ishtiroki muhim rol o'ynagan. Aksincha, jabrlanuvchilar hamkorlik qilmagan yoki ko'rsatmalarini o'zgartirgan holatlarda ishlarning katta qismi sudda isbotlanmay qolgan. Bu esa jabrlanuvchining protsessual roli qanchalik muhim ekanini ko'rsatadi.

Huquqiy yordam tizimining yetarli darajada rivojlanmagani ham muhim muammo hisoblanadi. Jabrlanuvchilar ko'pincha o'z huquqlarini to'liq bilmaydi va malakali yuridik yordamdan foydalana olmaydi. Natijada ular protsessual jarayonlarda passiv ishtirok etadi yoki umuman qatnashmaydi. Bu esa dalillar bazasining zaiflashishiga olib keladi. Xuddi shunday, psixologik yordamning yetishmasligi ham jiddiy muammo hisoblanadi. Odam savdosi qurbonlari ko'pincha og'ir ruhiy travma holatida bo'ladi. Travma nazariyasiga ko'ra, bunday shaxslar stress, qo'rquv va ishonchsizlik tufayli voqealarni aniq va izchil bayon qila olmaydi. Bu esa ularning ko'rsatmalarining ishonchliligiga ta'sir ko'rsatadi. Agar psixologik qo'llab-quvvatlash yetarli bo'lmasa, jabrlanuvchi tergov jarayonida faol ishtirok etmaydi.

Bu o'rinda ikkilamchi viktimizatsiya muammosi ham mavjud. Bu holat jabrlanuvchining tergov va sud jarayonida yana bir bor ruhiy zarar ko'rishini anglatadi. Masalan, takror-takror so'roq qilish, ishonchsiz munosabat yoki noqulay protsessual sharoitlar jabrlanuvchini yana travmatizatsiya qiladi. Natijada u hamkorlik qilishdan bosh tortadi yoki ko'rsatmalarini o'zgartiradi.

Kriminologik nazariyalarda jabrlanuvchining roli alohida o'rganilgan. Masalan, Nils Kristi o'zining "ideal jabrlanuvchi" konsepsiyasida jamiyat

va huquq tizimi jabrlanuvchini qanday qabul qilishi jinoyatning ochilishiga bevosita ta'sir qilishini ta'kidlaydi (Christie, 2004). Agar jabrlanuvchi yetarli darajada qo'llab-quvvatlanmasa, u tizimdan uzoqlashadi va bu jinoyatning ochilmasligiga olib keladi. Bundan tashqari, jabrlanuvchiga yo'naltirilgan yondashuvning sustligi javobgarlikning muqarrarligiga bevosita ta'sir qiladi. Chunki dalillar tizimi zaiflashadi, guvohliklar yetarli bo'lmaydi va sudda isbotlash darajasi pasayadi. Natijada aybdor shaxslar javobgarlikdan qochib qoladi. Bu esa jinoyatchilarda "jazodan qochish mumkin" degan tasavvurni shakllantiradi.

Shu nuqtayi nazardan, jabrlanuvchiga yo'naltirilgan yondashuvni rivojlantirish javobgarlikning muqarrarligini ta'minlashning muhim shartidir. Buning uchun kompleks choralar: jabrlanuvchilarning xavfsizligini ta'minlash, bepul huquqiy yordam tizimini rivojlantirish, psixologik reabilitatsiya xizmatlarini kengaytirish va tergov hamda sud jarayonlarini takomillashtirilgan shaklda tashkil etish zarur.

Jabrlanuvchiga yo'naltirilgan yondashuvning sust rivojlanganligi odam savdosi jinoyatlarini ochish va isbotlash jarayonida jiddiy to'siq bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu muammoni hal etmasdan turib, jazo muqarrarligini to'liq ta'minlash mumkin emas. Chunki aynan jabrlanuvchi – jinoyatni ochish zanjiridagi eng muhim bo'g'in hisoblanadi.

### **Xulosa**

Yuqorida sanab o'tgan muammolarga qo'shimcha yana sud amaliyotining barqaror emasligi, yagona standartlarning yo'qligi, korrupsiya va "institutsional befarqlik" fenomenining mavjudligi kabi omillarni ham javobgarlikning muqarrarligi prinsipining to'g'ri ishlashiga xalal beruvchi to'siqlar sifatida ko'rishimiz mumkin. Ushbu sanalgan barcha muammolar tizimli xarakterga ega bo'lib, ularni hal etish kompleks yondashuvni talab qiladi. Jinoyatlarni aniqlash uchun proaktiv mexanizmlarni joriy etish, jumladan, risk guruhlarini monitoring qilish va tezkor-qidiruv faoliyatini kuchaytirish zarur. So'ng tergov va sud amaliyotida yagona metodikani ishlab chiqish va joriy etish lozim, shuningdek, jabrlanuvchilarni himoya qilish tizimini kuchaytirish orqali ularning protsessual ishtirokini rag'batlantirish kerak. Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, ayniqsa, axborot almashinuvi va ekstraditsiya mexanizm-

larini soddalashtirish ham katta ahamiyat kasb etadi.

Odam savdosi uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash masalasi jinoyat huquqi va kriminologiya kesishgan nuqtada joylashgan murakkab, ko'p qirrali muammo sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mazkur yo'nalishda mavjud muammolar alohida-alohida emas, balki o'zaro bog'liq tizimli xarakterga ega.

Avvalo, latent (yashirin) jinoyatchilik darajasining yuqoriligi javobgarlikning muqarrarligi tamoyilining amalda ishlamasligiga olib kelmoqda. Jinoyat aniqlanmasa, u jazolanmaydi, natijada jinoyatchilikning real ko'lami rasmiy statistikada aks etmaydi va profilaktik choralar samarasiz bo'lib qoladi. Ikkinchidan, jinoyatlarni noto'g'ri kvalifikatsiya qilish holatlari jinoyatning haqiqiy ijtimoiy xavflilik darajasini pasaytirib ko'rsatadi hamda yengilroq jazolar qo'llanishiga sabab bo'ladi. Bu esa jazoning adolatlilik va muqarrarligi prinsiplariga putur yetkazadi. Uchinchidan, jabrlanuvchiga yo'naltirilgan yondashuvning sust rivojlangani dalillar bazasining zaiflashishiga olib kelib, jinoyatlarni isbotlash jarayonini murakkablashtiradi.

Xalqaro huquqiy standartlar, xususan, Palermo protokoli talablari shuni ko'rsatadiki, odam savdosiga qarshi samarali kurashish faqat jinoyatni jazolash bilangina cheklanmasdan, balki uni aniqlash, oldini olish va jabrlanuvchilarni kompleks himoya qilish bilan uyg'un holda olib borilishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash – faqat repressiv mexanizm emas, balki institutsional samaradorlik, huquqni qo'llash sifati va ijtimoiy himoya tizimining rivojlanish darajasini aks ettiruvchi kompleks ko'rsatkichdir.

Tadqiqot asosida quyidagi umumiy xulosaga kelish mumkin: agar jinoyat aniqlanmasa, to'g'ri kvalifikatsiya qilinmasa va jabrlanuvchi himoya qilinmasa, javobgarlikning muqarrarligi prinsipi amalda ishlamaydi va faqat deklarativ norma sifatida qolib ketadi. Shu bois mazkur sohada quyidagi: jinoyatlarni aniqlash mexanizmlarini kuchaytirish, tergov va sud amaliyotini unifikatsiya qilish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar malakasini oshirish hamda jabrlanuvchilarni himoya qilishning samarali tizimini yaratish kabi ustuvor yo'nalishlarni rivojlantirish zarur.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, odam savdosiga qarshi kurashishda haqiqiy natijaga erishish jazoning og'irligida emas, balki uning muqarrarligini ta'minlashdadir. Aynan shu

prinsip to'liq va samarali amalga oshirilgan taqdirdagina mazkur jinoyat turiga qarshi barqaror va uzoq muddatli natijalarga erishish mumkin bo'ladi.

## REFERENCES

- Abdulkhakov, Y. A. (2019). *Odam savdosi jinoyatlarini tergov qilishning xususiyatlari [Features of investigating human trafficking crimes]* (Abstract of doctoral dissertation). Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan.
- Abdullaev, A. (2021). Odam savdosiga qarshi kurashning jinoyat-huquqiy asoslari [Criminal-legal bases of combating human trafficking]. *Review of Law Sciences*, (4), 45–52.
- Bales, K., & Drejer, C. (2018). *#SlaveTech: A snapshot of slavery in a digital age*. SkaperKraft.
- Beccaria, C. (1995). *On crimes and punishments* (R. Bellamy, Ed.; R. Davies, Trans.). Cambridge University Press. (Original work published 1764).
- Belth, J. M. (2018, October 15). No. 288: *Edwin Sutherland: A censorship case*. Joseph M. Belth. <https://www.josephmbelth.com/2018/10/no-288-edwin-sutherland-censorship-case.html>
- Christie N. (2004) *Suitable Amount of Crime*. Oslo University Press.
- International Labour Organization, Walk Free, & International Organization for Migration. (2022). *Global estimates of modern slavery: Forced labour and forced marriage*. International Labour Office.
- Ismoilov, O. Y. (2021). Latent jinoyatchilik: tushuncha va tavsifiy xususiyatlari [Latent crime: Concept and descriptive characteristics]. *Lawyer Newsletter*, (2), 65–70.
- Maltsiev, V. V. (2004). *Printsipy ugovnogo prava i ikh realizatsiya v pravoprimeritelnoy deyatel'nosti [Principles of criminal law and their implementation in law enforcement practice]*. Legal Center Press.
- Republic of Uzbekistan. (1994, September 22). *O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi [Criminal Code of the Republic of Uzbekistan]*. Adolat.
- Republic of Uzbekistan. (2020, August 17). Law "On combating human trafficking" (No. LRU-633). Lex.uz.
- Rustambayev, M. Kh. (2018). *O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. [Course of criminal law of the Republic of Uzbekistan]*. Military-Technical Institute of the National Guard of the Republic of Uzbekistan.
- Salayev, N. S. (2016). Jinoiy jazo: Ijtimoiy-falsafiy tushunishga urinish [Criminal punishment: An attempt at socio-philosophical understanding]. *Uzbekistan Law Review*, (4), 58–60.
- Shelley, L. (2018). *Human trafficking: A global perspective*. Cambridge University Press.
- Surtees, R. (2019). Trafficked persons as victims and witnesses. *Anti-Trafficking Review*, (12), 1–17.
- United Nations General Assembly. (2000). *Protocol to prevent, suppress and punish trafficking in persons, especially women and children, supplementing the United Nations Convention against Transnational Organized Crime*. United Nations. <https://www.unodc.org>
- United Nations Office on Drugs and Crime. (2023). *Toolkit to combat trafficking in persons*. United Nations Office on Drugs and Crime. <https://www.unodc.org>
- United Nations Office on Drugs and Crime. (2024). *Global report on trafficking in persons 2024*. United Nations publication <https://www.unodc.org/unodc/en/data-and-analysis/glotip.html>
- Verteleckaya, N. P. (2012). Migratsionnaya politika v usloviyakh globalizatsii [Migration policy in the context of globalization]. *The World and Politics*, (11).
- Vogler, R. (2005). *A world view of criminal justice*. Ashgate Publishing.
- Zufarov, R. A. (2015). *Jinoyat huquqi. Umumiy qism [Criminal law. General part]*. TSUL Publ.

# YURISPRUDENSIYA

---

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

**2026-YIL 3-SON**

VOLUME 6 / ISSUE 3 / 2026

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.6.3>.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence>